



HISTORY OF VARIOUS TECHNOLOGIES OF LANDSCAPE ILLUSTRATION IN PAINT MATERIALS AND THE IMPORTANCE OF MODERN EDUCATION IN QUALITY EDUCATION

Ruzikhon Djalilova Kazakovna. Member of the Union of Artists of the Academy of Arts of Uzbekistan. FarSU. Associate Professor of the Department of "Fine Arts".

Article history:	Abstract:
Received: 10 th February 2026 Accepted: 8 th March 2026	This article discusses the directions of fine arts painting, types of watercolors, artists' creativity, methods of depicting, history, modern scientific methods of studying on the basis of practical exercises. Watercolor paints, gouache, tempera, practical exercises, painting. Thoughtful thoughts of scientists who have scientifically studied the influence of color on the human psyche. The effectiveness of education through the development of education, the content, form, methods, means and advanced pedagogical experiences through theoretical and methodological approaches, and scientific and methodological recommendations based on the problem and solution were highlighted.

Keywords: Watercolor, gouache, tempera, landscape, appearance, architecture, aesthetics, color, state, mental mood, spectrum, human portrait

RANGTASVIR MATERYALSHUNOSLIKDA MANZARANI TURLI TEXNALOGIYA TASVIRLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY O`QITISH SIFATLI O`QITISHDAGI AHAMIYATI

Ruzixon Djalilova Kazakovna. O'zbekiston badiiy akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi. FarDU. "Tasviriy san'at" kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tasaviriy san'at rangtasvir yunalishlari, akvarel turlari rassomlar ijod tarkibiy qismlari tasvorlash metodikasi, tarixi zamonaviy ilmiy uslublarni amaliy ma'sh'g'ulotlar asosida o'rganish yullari. Rangtasvir suvli buyoqlari guash, temperani amaliy ma'sh'g'ulotlar rangtasviri. Rangni inson ruhiyatiga ta'sirini ilmiy o'rgangan muraffakar olimlar gikir muloxozalari. Tarbiyani rivojlantirishi orqali ta'lim samaradorligini, nazariy va uslubiy yondashuvlar orqali mazmun, shakl, usullar, vosita va ilg'or pedagogik tajribalarni muammosi va echimi kelib chiqqan holda ilmiy, uslubiy tavsiyalar xaqida yoritildi.

Kalit so'zlar. akvarel, guash, tempera, manzara, kurinish, me'morchilik, estetika rang, holati, aqliy kayfiyat, spektr, inson portreti

В статье рассматриваются направления изобразительного искусства, виды акварели, творчество художников, методы изображения, история, современные научные методы обучения на основе практических занятий. Акварельные краски, гуашь, темпера, практические занятия, живопись. Вдумчиво рассматриваются мысли учёных, изучавших влияние цвета на психику человека. В статье освещается эффективность образования через развитие образования, его содержание, форму, методы, средства и передовой педагогический опыт, основанные на теоретико-методических подходах и научно-методических рекомендациях, основанных на проблеме и её решении.

Ключевые слова: акварель, гуашь, темпера, пейзаж, облик, архитектура, эстетика, цвет, состояние, душевное настроение, спектр, портрет человека.

O'zbekiston yangi san'at madaniyati tarixi qadimdan xalq amaliy san'ati me'morchilik kulolchilik rangtasviri san'ati bilan uzviy bog'liq xolda rivojlangan. Tasviriy va amaliy san'at rangtasvir me'morchilik, xaykaltaroshlik grafika tasvirlari asirlar davomida ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarni rivojlanishi o'qitish sifati ta'lim sifati Rivojlanish - tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o'zgarish; bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o'tish. Rivojlanish natijasida obyektning - tarkibi yoki strukturasi yangi sifat holati vujudga keladi. Rivojlanish tabiat,

jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy tamoyilidir. Rivojlanishning 2 shakli mavjud: obyektning sekin-asta sodir bo'luvchi miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq evolyutsion rivojlanish va obyekt tuzilmasidagi sifat o'zgarishlaridan iborat inqilobiy rivojlanish. Evolyutsion rivojlanish jamiyatda bir tizimning asta-sekin, keskin portlashsiz bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini, inqilobiy rivojlanish esa keskin portlash yo'li bilan bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini bildiradi. Evolyutsion rivojlanish jamiyatning yangi bosqichga uzluksiz va talafotlarsiz o'tishiga imkon beradi. Bunday o'tishda muayyan vaqt zarur bo'ladi. Inqilobiy Rivojlanishda jamiyatning eski asosiy tayanch nuqtalari yo'q qilinib, keskin sifatiy o'zgarishlar amalga oshiriladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi jamiyatga o'tishning evolyutsion rivojlanish yo'lini tanladi. Bu yo'l jamiyat a'zolarining manfaatlariga zid kelmaydigan, muayyan vaqtni talab qiladigan va pirovardida samarali bo'ladigan yo'ldir. Rivojlanishning progressiv, taraqqiyot turi (qarang Taraqqiyot) bilan regressiv, tanazzul turi (qarang Inqiroz) farqlanadi [5]

Hozirgi zamon fanida rivojlanishning maxsus ilmiy nazariyasi ishlab chiqilmoqda, unda asosan, qaytariluvchi jarayonlarni qarab chiquvchi klassik tabiatshunoslikdan farq qilgan holda, nohiziq, sakrashsimon o'zgarishlar bayon qilinadi (yana qarang Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni, Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, Inkorni inkor qonuni).

Tasviriy san'at zamonaviy o'qitish metodikasi ushun ashyolar va materyalshunoslik texnologiyasi rivojlanishi uchu muxim ahamiyatga egadur.

Rangtasvir tasviriy san'at turi; biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, Masalan, bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar. Rangli voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish; tomoshabin fikri va tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasi; muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy vazifalarga ega. Rangli asarining goyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi, syujetni rassom Rangli ifoda vositalari (kompozitsiya, rasm, rang, ritm va hokazo) orqali ro'yobga chiqaradi. Parterit. asarlari asos (maxsus ishlov berilgan mato, yog'och, qog'oz, karton, shisha, metall va hokazo), rang qatlami (moybo'yoq, guash, tempera, akvarel, rangli shisha, rangli tosh va hokazo), ayrim hollarda uni saqlash uchun ustidan berilgan yupqa lok qatlamidan iborat bo'ladi. Rasimning muhim tasviriy va ta'sir vositasi rang (kolorit). Rang orqali borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y-xayollarni aks ettirishi mumkin.

Rangning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang, qurollar xususiyati, rang eritgichlari, asosi (funt)ga bog'liq (Mas, yuzasi silliq yoki g'adirbudir berilishiga qarab asar ko'rinishi turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin). Asar dastlab ijodkor tasavvuri va ongida paydo bo'lgan g'oya qoralamasi tarzida kalam yoki ko'mirqalamda biror yuz (ko'pincha qog'oz va karton) da ishlab olinadi. So'ng shunga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishning mohiyatiga ko'ra ishlov beriladi. Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab rasmi ishlanadi.

Rang berishda esa asta suyultirilgan rang bilan boshlab ko'p qatlamli (lessirovka) yoki kerak rangni bir qo'yishda bir katlamli (alla prima) bajarish mumkin. Rangning asarlari ishlanishini shartli ikki - yassi va hajmli -fazoviy uslubga ajratish mumkin: birinchi uslubda tasvir nursoyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi, hajmlifazoviy usubda esa tasvir hajmli nursoya yordamida muhit bilan bog'liq hodda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishi (refleks)ni ko'rish mumkin. Rangli asarlarida bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Rangli asarlari o'zining ishlanish o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rinishiga qarab me'morchilik, interer,Arxitektuea dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, amaliy san'at bezash san'ati,Milliy libos dizayin, dekoratsiya (teatr va kino dekoratsiyasi), miniatyura va boshqalarga bo'linadi. Tasvir mavzui va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga ajraladi: animalistika, tarixiy janr, maishiy janr, batal' janri, portret, manzara, natyurmort va boshqalar

Rangtasvir qlqmtasvir tasvirlari qadimda so'nggi paleolit (miloddan avvalgi 4-8ming yilliklar) da paydo bo'lgan. Janubiy Fransiya (Fon de Gom, Lasko), Shimoliy Ispaniya (Altamira), O'rta Osiyo va boshqalarda Rangtasvir asarlari saqlanib qolgan; soz tuproqli bo'yoqlar, qorakuya, pista kumir bilan ishlangan, rasmlar tekis sharpa sifat (siluet), ba'zilarida esa hajmli kilib ishlashga harakat qilinganligi seziladi, mezolit va neolit davrida bajarilgan ibtidoiy rasmlarda murakkab kompozitsiyalar, abstrakt tushunchalar paydo bo'la boshlagan. Quddorlik davrida rivojlangan texnik vositalarga boy obrazlar tizimi shakllandi. Qadimgi Sharq mamlakatlari (Misr, Hindiston, O'rta Osiyo), janrlar sharqiy Yevropa (Yunoniston, Italiya), shuningdek, Amerika qit'asi (Markaziy Amerika) da monumental Rangtasvir rivojlandi.

Maqbara ibodatxona, saroy va boy zodagonlarning uylari devorlariga turli mavzu va yo'nalishda asarlar ishlandi.

Antik davrda me'morlik va haykaltaroshlik bilan uyg'unlashgan Rangtasvir diniy mazmun bilan bir qatorda oliy tavaqa maqsadlarita tavmat qildi, nursoya, chiziq va havo perspektivasi yuzaga keldi, maishiy va tarixiy lavhalar, manzara, portret, natyurmortlar yaratildi. Miloddan avvalgi 5-asrda Yunonistonda mum rassomligi (enkaustika)dagi dastgoh rassomligi haqida fayyum portretlari tasavvur beradi. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida monumental Rangtasvir san'ati o'zining haqiqiy gullashdavrini boshidan kechirdi. Hindiston (Ajanta), O'rta Osiyo (Tuproqqal'a, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa) va boshqalarda nozik bo'yoqlar, nafis bezak ritmi, hayotiy kuzatishlarning yorqinligi xos bo'lgan miniatyura san'ati rivojlandi.

Xitoy, Yaponiya, Koreyada shoyi va qog'ozga tush, tabiiy usimlik kukunlaridan tayorlanilgan, akvarel va guash bo'yog'i rasm ishlash sohas yuqori cho'qqilarga erishidi.

Uyg'onish davri Rangtasvirning yangi qirralari yuzaga keldi, ilmiy asosga tayangan realistik san'at kamol topdi va jahon san'ati rivojida muhim o'rinni egalladi: ifoda tizimi hamda uning ilmiy asosi yaratildi.

Perspektiva, optika, plastik anatomiya borasida yutuqlarga erishildi, monumental tempera, rangtasvir yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, g'oyaviy boyidi, dastgohli rangtasvir ijtimoiy hayotga keng ko'lamda kirib bordi.

Rangtasvir ashyolar texnikasi, suvli bo'yoq o'rnini moybo'yoq egallay boshladi, lessirovka, valyor uslubiga qiziqish ortdi. Lok-moybo'yoq texnikasi murakkablashdi, ko'p qatlamli R. rivojlandi. Faktura masalalarida ham izlanishlar olib borildi, oq qoplamli (grunt) asosga silliq rangli qoplama asosga quyuq rang surtmalari (pastoz uslubi) bilan ishlashga e'tibor ortdi. 17-18 asrlarda Yevropa (Fransiya, Italiya, Ispaniya, Flandriya, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Rossiya va boshqalar) milliy Rangtasvir maktablari shakllandi.

Hayotni haqqoniy inqilobiy taraqqiyotda aks ettirish, inson ruhiy olamidagi nozik o'zgarishlarni, inson va jamiyat muammolarini ishonarli talqin etish muhim o'rinni egalladi. Rangtasvir janrlari kengaydi, monumental Rangtasvir bilan dastgoh san'ati keng rivoj topdi, uslubiy yo'nalishlari ko'paydi, tonal Rang yanada mukammallashdi.

Pastel, akvarelga qiziqish ortdi. Yevropa san'ati (ayniqsa, dastgoh R.)ning jahon xalqlari, jumladan, Sharq mamlakatlari san'atiga ta'siri sezilarli bo'ldi.

19-asrda Rangtasvir dunyoqarash bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etishga harakat qilib ijtimoiy hayotda muhim urinni egalladi. Ijtimoiy hayotdagi mavjud illatlar o'tkir tanqid ostiga olindi. 19-asr mobaynida akademizmga asoslangan xayotdan uzok, ideallashtirilgan obraz va qahramonlarni targ'ib qiluvchi asarlar maqtaldi, naturalizm an'analari shakllandi.

Quruq, hayotdan uzoq so'nggi klassitsizm va salon akademizmiga qarshi kurashda davrning murakkab, fojiali voqealariga bag'ishlangan shijoatli, ta'sirchan, nur soya nisbatlari keskin olingan, to'yingan, rangdor koloritli romantizm uslubi paydo bo'lib rivojlandi. (Fransiyada P.Jeriko, E.Delakrua; Germaniyada - F.O.Runge, K.D.Fridrix, Rossiyada O.A.Kiprenskiy, K.P.Bryullov va boshqalar), hayotni o'ziga o'xshatib ishlash uslubiga asoslangan realistik rangtasvir bu davrda yanada chuqurlashdi.

Endilikda tasvirni na faqat haqqoniy bo'lishiga, balki hayotni kuzatish asosida paydo bo'lgan kechinma va taassurotlarni, xayol va o'ylarni ham ifodalashga harakat kuchaydi. Borliqning o'zidan kartina yaratish, nur, havo, kenglik ranglar tuslanishi va birbirining rangiga ta'sir etish xususiyatlarini ham ishonarli ranglarda tasvirlashga intilish kengayib bordi (Angliyada - J.Konstebel, Fransiyada - K.Koro, O. Domye, Rossiyada -A.G.Venetsianov va boshqalar). Yevropada inqilob va milliy ozodlik harakati kuchaygan davrda demokratik realizm rivojlandi, xalqhayoti, ularning kurashlari ko'rsatildi, milliy tarix va zamonaning muhim voqealarini aks ettiruvchi kompozitsiyalar, jamiyatning jasur va ilg'or kishilarining siymolari yaratildi.

Rus inqilobiy demokratik estetikasi bilan bog'liq ijtimoiy tankdsiy realizm rivojlandi. Peredvijniklar va ularga yaqin ijodkorlar (V.Perov, I.Kramskoy, I. Repin, V.Surikov va boshqalar) shu jarayonda faol o'rinni egalladilar. 19-asr 70-yillaridan rassomlar palitrasi toza spektr ranglari bilan boyidi; rassomlar ochiq havoda rasm ishlashni odat qila boshladilar. Bu borada impressionist rassomlar (K.Mone, K.Pissaro, A.Sisley va boshqalar) alohida o'rinni egalladilar. Ular rang yuzasini tashkil etishda o'ziga xos yo'l tutib an'anaviy silliq fakturadan va shakllarning tugal chizikli yechimidan voz kechish, ishlash uslubini yangilanishiga, toza spektr ranglarning erkin surtmalaridan foydalanib asar yaratishga erishdilar. Bu harakat keyinroq haykaltaroshlik, grafika, me'morlik, musiqa, adabiyot va boshqa san'at turlariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi (qarang Impressionizm).

19-asr moybo'yoq rangtasvir yetakchi o'rinni egalladi, bunga uning texnikasi, shu davrda sanoatda ishlab chiqarilayotgan yangi bo'yoqlarning keng ko'lamda hayotga kirib kelishi bog'liqedi. 19-asr Rangning elim va moybo'yoq bilan asar yaratish usuli inqirozga tusha boshladi. 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida shu san'atni qayta tiklash harakati boshlandi, uning yangi qirralari ochila boshlandi, san'atning bezak tomoniga e'tibor ortdi; me'morlik, tasviriy va amaliy san'atlar uyg'unligida yagona majmua yaratish ishtiyiqi shu davrda paydo bo'lgan modern uslubida namoyon bo'ldi. Bu davrda avangard yo'nalishi realistik rantasvirga kuchli raqobatda bo'ldi.

Sharq va G'arb to'qnashuvi natijasida 20-asr rangtasviri shakllandi, realistik san'atga raqobatda avangard san'ati rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalish tarafdorlari ijodkor subyektiv kechinmalari, histuyg'ularini hayotiy, borliq shakllarida tasvirlashdan ko'ra o'zlarining xayollaridagi shakl va ko'rinishlar, harakatlari natijasida paydo bo'lgan shakl va chizikdarni tasvirlashni ma'qul ko'radilar.

Avangard oqimlarining rivojlanishi natijasida borliqni tasvirlashdan umuman voz kechilib tasvir vositalari ham o'zgarib boshladi (abstrakt san'at). 20-asr 60-yillar o'rtalaridan esa ayrim Yevropa va Amerika Rangtasvir avangard san'ati -popartnng unsuriga aylanib bordi. Bugungi kunda ushbu raqobat rivojlanib avangard tarafdorlari ortib bormokda.

O'zbekistonda Rangtasvir san'ati qadimdan mavjud bo'lgan. Uning ilk namunalari ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi (qarang Ibtidoiy san'at, Zarautsoy rasmlari). Miloddan avvalgi 1ming yillikning oxiri va milodiy 1ming yillik

boshlarida Rangtasvir o'zining gullagan davrini boshidan kechirgan (Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Tuproqqal'a va boshqalardagi devoriy rasmlar). Bu davrlar Rangtasvir yassi bezak yo'nalishida mahalliy (lokal) ranglarda tasvirlanilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san'at xar tamonlama monumental rangtasvir (devoriy rassomlik, mozaika) bilan birga miniatyura san'ati rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahqib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalarning asarlari dunyoga keldi.

19-asr o'rtalaridan boshlab Turkistonda dastgoh san'ati shakllana boshladi. 20-asrda O'zbekiston milliy tasviriy san'at maktablari, sutudiylar, bilim yurtlari rangtasvir maktablari, ustaxonalar tashkillanildi. Rangtasvirning hamma tur va janrlarida asarlar yaratildi, miniatyura, vitraj san'ati qayta tiklandi.

O'zbekiston yangi tasviriy san'at tarixi bugungi kun o'zbek badiiy madaniyati, rangtasvir kurinishlari zamonaviy rivojlanish plastikasi rang, shakil, g'oya, mazmun metodikasi estetik-ma'maviy, psixologik, pedagogic ijtimoiy fanlar ta'lim-tarbiya tizimi ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilib taxlil etildi.

Rangni fanlararo o'rganish (hozirgi kun muammoli mavzudir). Rangtasvir va inson o'rtasidagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos jihatlari o'rganish, gumanitar fanlar, tobora ko'proq rangli slaydlar electron, vidyolarda qullanish rivojlanmoqda.

Masalan, nazariy va amaliy qiziqishni ifodalovchi rang ramziyligi muammosi estetika san'at tarixi, etnologiya, struktura antropologiya, analitik, differentsial va funktsional psixologiya va boshqa fanlar tizimlari urganilmoqda.

Rangtasvirning inson ruhiyati, estetikasiga ta'siri haqida Gyote shunday fikr bildirgan: "Rang. ko'rish tuyg'usiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Rang orqali inson ruhi kayfiyatiga ta'sir etish yullari, shuning uchun san'at elementi sifatida olingan rangdan yuqori estetik tuyg'ularni targ'ib qilish uchun foydalanish mumkin". Bundan kelib chiqadiki, rang estetikasi uchun rangni idrok etishning ushbu "uchinchi tomoni" ni tushunish (ruhiy kayfiyatga ta'sir qiladi va yuqori estetik tuyg'ularni uyg'otadi) rangdagi estetik ma'lumotlarning tabiati haqida adekvat g'oyalarni yaratishga yordam beradi.

Rangtasvir materyalshunoslik "xrom" tushunchasiga murojaat qilaylik, unda qadimgi mualliflar, umuman olganda, uchta ma'noni qo'yadilar: Rang ideal sifati, bo'yoq material sifatida va hissiyot ularning munosabatlari. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, eng yuqori estetik tuyg'ularni (rangni idrok etishning "uchinchi tomoni") ularning "ikki tomonlamaligi" bilan solishtirish mumkin, bu estetikaning yuqoridagi ta'rifidan kelib chiqadi. Darhaqiqat, katarsis paytida qo'rquv, masalan, Aristotelning so'zlariga ko'ra, ruhning tozalanishiga olib keladi, bunda taniqli idioma "qo'rquvdan oqarib ketadi" fiziologik emas, balki estetik ma'noga ega bo'lishi mumkin: ijobiy mazmun, katarsis aynan idealning (aqliy kayfiyat) materialga (tana rangining o'zgarishi) ikki tomonlama munosabatlarida yotadi.

Rangtasvir terapiyasi psixoterapiyaning eng mashhur sohalardan biridir. Insoniyat qadimdan ranglarning shifobaxsh xususiyatlari haqida qadimdan ma'lumotga ega bo'lganlar. Qadimgi Misrda ma'badlarda allaqachon quyosh nurlari aniqlanadigan maxsus xonalar mavjud bo'lib, u yerda quyosh nurlari spektrning u yoki bu rangiga ma'lum tarzda singan.

Arxeologlar bu xonalarning shifobaxsh bo'lganligini ta'kidlashadi. 9-asrda mashhur Avitsenna rang, temperament va salomatlik bog'liqligini aks ettiruvchi maxsus atlas tuzgan. O'rta asrlarda buyuk tabib Paracelsus o'z dori-darmonlarini tayyorlaganda nafaqat komponentlarning xususiyatlariga, balki va ularning rangiga ham o'z e'tiborini qaratgan. Rang odamni hamma joyda o'rab oladi. Bu kuchli energiya inson organizmiga doimo ta'sir etadi.

Rang terapiyasining asoslari antik davrda qo'yilgan. Zamonaviy olimlar shuni tasdiqlashadiki, biror bir rangning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi har xil og'ishishlarni hattoki kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yetti kamalak rangning har biri tarkibi inson aurasining tuzilishida aks etadi va uning organlari va to'qimalari bilan bog'liq hisoblanadi. Rossiya rang terapiyasi nazariyasiga psixonevrolog V. M. Bexterev katta hissa qo'shgan. U bu ranglar jamlanmasi inson holatiga xuddi dorilardak ta'sir qilishi mumkinligini isbotladi.

Bexterev pushti va qizil ranglar hayajonga solishi va ruhiy tushkunlikdan chiqarishi, ko'k va moviy rang tinchlantiradi, tormozlanish reaksiyasini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda har bir rangning o'ziga xos to'liq uzunligi borligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Shuning uchun elektromagnit nurlanish nafaqat ko'zlar, balki teri orqali ham qabu qilinadi. Bundan tashqari, inson tanasining har bir organi ma'lum elektromagnit chastotasida "ishlaydi". Rang ta'sirida chastotaning o'zgarishi, organ faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun, rang terapiyasi tanaga butunlay ta'sir ko'rsatishi ajablanarli emas. Rang inson ruhiyatiga ham ta'sir qiladi.

Shved psixologi Maks Lyusher inson boshdan kechiradigan his-tuyg'ular bilan ranglarning o'zaro bog'liqligini aniqladi.

Qizil rang hayotiy kuchlarni faollashtiradi. Charchoqni, salbiy his-tuyg'ularni, depressiyani yo'qotadi. Irodani kuchaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi. Ish o'rningizga joylashib oling va atrofingizga qizil rangdagi qaysidir bir obyektini qo'ying (rasm, papka, gullar). Bu ish faoliyatini yaxshilaydi, energiya beradi, asabiy taranglikni bartaraf qiladi.

Qizil rang issiqlik ta'siriga ega, u yurak va qon aylanish tizimini mustahkamlaydi. Undan shamollagan va issiqlikka muhtoj bo'lganlar odamlar foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'zingizni letargik his qilsangiz yoki biror bir ishni qilishni xohlamasangiz ammo qilishingiz zarur bulsa, hayolan qizil rangni tasavvur qiling va bu sizga kuch bag'ishlaydi.

Sabziring -yoshlik va optimizm rangi. Sabziring nafaqat yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, balki hayotga bo'lgan qiziqishni qaytaradi. Agar siz hamma narsa abadiy yo'qolgan va baxtli kunlar boshqa qaytmaydi deb o'ylasangiz, ko'nglingiz og'riqdan yig'layotgan bo'lsa, atrofingizni sabziring narsalar bilan o'rab oling. Shundan so'ng yana qalbingizda quyosh porlaydi va hayot rang-barang ko'rina boshlaydi. Ish joyingizda ham albatta, sabziring jihozlar qo'ying va bu sizga omad olib keladi. Bu rangning energiyasi sizga to'g'ri qaror qabul qilishingizga yordam beradi. To'q sariq rang issiqlik hissi va xursandchilik tuyg'usini uyg'otadi.

Bu rang diqqatni tortadi va yurak tezligini oshiradi. Yotoq xonasi uchun shaftoli rangidan foydalanish yaxshi, u odatda tozalik va sog'lik bilan bog'liq. Shunchaki apelsinni oynaga osib qo'yish lozim. Buni organizm o'zini his qilishni yaxshilash sifatida qabul qiladi. Burang bilan asab buzilishlari va depressiv holatlar davolanadi. Sabziring o'rnatish bo'yicha qo'rquvlardan qutulishga yordam beradi va ruhan insonni mustahkamlash bilan birga uni olg'a borishga undaydi. Sariq rang asab tizimini mustahkamlaydi, kayfiyatni yaxshilaydi.

U ma'lumotni tez o'zlashtirishga, kerakli insonlar bilan to'g'ri aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ushbu rang tufayli suxandonlik eshiklari ochiladi, suhbatdoshingiz bilan til topish oson bo'ladi. Sariq rang oshqozon-ichak tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rang teri va ko'z nuri uchun yaxshi. Sariq rangning energiyasi insonning o'z kuchiga ishonch bag'ishlagan holda qiyinchilikni yengishga yordam beradi.

Sariq rang – quvonch manbai. Qachonki hayotingizga aniqlik kiritmoqchi bo'lsangiz bu rangdan foydalaning, chunki bu rang konsratsiya rangi hisoblanadi. Sariq energiyaga boy insonlar rangi. Yashil rang ohanglari hissiyotlarni tinchlantirishga yordam beradi, stressni yengillashtiradi, qon bosimini barqarorlashtiradi. Bu barqarorlik va qat'iyatning rangi. Tanlash kerak bo'lgan paytda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Yashil rang tajriba va donolik energiyasini chiqaradi. Turli xil hayotiy vaziyatlardan chiqish yo'lini ko'rsatadi, o'tmish haqidagi salbiy tasavvurlardan qutulishga yordam beradi va fikrlarni ravshanlashtiradi.

Rang var rangtasvir texnologiyasi materyalshunoslikni badiiy asar tasvirlash bosqichlari ijodkor rassom uchun ilmiy amliy bilimga ega bulish kerak. Xar tasviriy san'at yunalishi badiiy asar ma'zmunni bir rangni falsafiy ma'nosi ramzi tamoilarga egadur. Zamonaviy tasviriy san'at ta'lim jarayonlari tasvirlash metodikasi didaktik pirinsiplari xaqida ma'lumotlar asosida amaliy va nazari bilim va kunikmalar, talaba yoki ilmiy magistir doktorant pedagoglar mustaqil izlansagina bu muammolar echim sifat va natijasiga erishish mumkin.

Xulosa tasviriy san'at me'morchilik kulolchilik, amliy san'at rangtasvir qalamtasvir kompozitsiyalari tarixiy taraqqiyot asirlar davomida rivojlanildi. Rangtasvirni turli soxa olimlar ilmiy tadqiqotlar asosida o'rgangan. Tasviriy san'at rassomlar ijodiy asrlari misoli amaliy tasvirlarida yillar davomida badiiy asalari misoli tasvirlanilgan. Tasviriy san'at san'at tarixi o'qitish tizimida rangtasvir san'atning rivojlanishi inson Tarbiya"siga bog'liq xolda rivojlanadi. Yillar davomida ijodiy asrni tasvirlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. san'at madaniyat maktablari tarbiyasi inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi mumkin. Tasviriy san'at rangtasvir tasvirlash ma'lum san'at maktablar ijodkorlikni rivoji uchun muxim axamiyatga egadur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антоненко Е. Ю. Язык цвета / Е. Ю. Антоненко — «Фолио», 2011
2. Базыма Б.А. Цвет и психика. Монография. Харьков, 2001
3. S.Abdirasilov, N.Tolipov, "Rangtasvir " Toshkent- "Innovatsiya-Ziyo" - 2019
- 4.S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent- "O'zbekiston" -2006/ 136 bet.
5. R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo "Navruz". T- 2013
6. Toshmurodov. M. E "Rangtasvir amaliyoti"(dastgohli rangtasvir), o'quv-uslubiy qo'llanma.elektron resurs. T. "Cashma print" 2010 y.
5. Jumaniyazov. Sh. R, Xaitov. E. X "Rangtasvir" o'quv qo'llanma. T. "INFO CFPITAL GROUP" 2018 y
6. H.Egamov "Bo'yoqlar bilan ishlash"-Toshkent.O'qituvchi.1981yil

Aoydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.Orif Muinov. Rangtasvir.Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma./Orif Muinov.-T.: "SHARQ",2007.-72b. Ижодимиз хақида гапирсак.Т., 2009.2.Yusupova N. ranglarga yashirin sirlar.-T T.:DAVR PRESS,2010.-152 6.
2. "The Color Guide and Glossary". 2004-52 b.
- 3.Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. T.: "Sharq" 2007.203b.
4. Baxtiyor To'rayev. O'zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

1.RQ. D. (2021). Method of drawing the composition of different states of the human body in 10.Джалилова, Р. (2022). тасвирий санъат асарлари миллий истиқлол ғоясининг тарихий ва фалсафий асослари. *oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 243-250.

2.Жалилова.Р.(2022). мустақиллик йиллари тасвирий санъат қаламтасвир, рангтасвир, композицияси тараққиёти. *Science and innovation*, 1(С3), 239-244.

3.Jalilova. R. (2022). Tasviriy san'atda qalamtasvir texnologiyasini o'qitishning didaktik prinsiplari. *science and innovation*, 1(c2), 45-47.

4.Jalilova R. (2022). The development of visual art in pencil drawing, painting, composition and independent painting. *science and innovation*, 1(3), 239-244.

5.Jalilova, R. (2022). Hereditary diseases. *евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 221-226.

6.Jalilova. R.Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественных и социальных проблем: материалы XVI Всерос*, 131.

7.Jalilova R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 41-45.

8. Jalilova, R. (2023). Educational methodology of aesthetic education of landscape painting. *science and innovation*, 2(c7), 66-70.

9. Jalilova R. (2023). history of landscape in middle asian works of art, philosophical and aesthetic methodology of educational problems and solutions. *science and innovation*, 2(C7), 71-75.

10.Jalilova R. (2023). User experience and user interface design. *Scientific Collection «InterConf»*, (158), 237-242.2023

11.Djalilova.R.(2023). The difference of creative and educational teaching of still life in painting, problems in the education of young educators. *science and Innovation*, 2(6), 29-33.

12.Djalilova, R.(2023). The difference of creative and educational teaching of still life in painting, problems in the education of young educators. *science and Innovation*, 2(6), 29-33.

13.Djalilova R. Z. K. (2023). O'zbekiston tasviriy san'at yangi o'zbekiston tarixida xizmat ko'rsatayotgan rassomlar ijodi. *oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 583-590.

14.Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.

15.Djalilova R. (2023). The difference of creative and educational teaching of still life in painting, problems in the education of young educators. *science and innovation*, 2(6), 29-33.

16.Jalilova. R.(2023). educational methodology of aesthetic education of landscape painting. *science and innovation*, 2(c7), 66-70.2023 avgust

17.Djalilova. R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.18, Djalilova, R., Ahmedbekova, M., & Polatov, D. (2023).

Skobs Big data as a means of management by construction, or "Hypernudge". In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 03012). EDP Sciences.

19. Egamberdiyeva, T, Kazakovna, D. R. (2023). New History of Uzbekistan Inspired by the Gloss of Colors. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 19, 9 the interior. *Thematics Journal of Arts and Culture*, 5(1).

20.Джалилова. Р. (2023). Дастгоҳли академик рангтасвир ва қаламтасвир портрет композицияси. *oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 575-582.

21 Djalilova. R. Z. K. (2023). O'zbekiston tasviriy san'at yangi o'zbekiston tarixida xizmat ko'rsatayotgan rassomlar ijodi. *oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 583-590.

22.Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.14.

2023-2034 y

23.Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.

2.SUV BILAN ISHLATILADIGAN BO'YOQ VA MATERIAL AKVAREL RANGTASVIR TEXNLOGIYASINI BADIY TA'LIM SIFATI RIVOJLANISHI MUAMMOLARI VA ECHIMI

Ruzixon Djalilova Kazakovna.O'zbekiston badiiy akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi. FarDU. "Tasviriy san'at" kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tasviriy san'at rangtasvir yunalishlari akvarel texnologiyasi tasvirlagan rassomlar ijodini rivojlantirishi orqali ta'lim samaradorligini, nazariy va uslubiy yondashuvlar orqali mazmun, shakl, usullar, vosita va ilg'or pedagogik tajribalarni muammosi va echimi kelib chiqqan holda ilmiy, uslubiy tavsiyalar haqida yoritildi.

Kalit so'zlar. akvarel, manzara, me'morchilik, rangtasvir

В статье рассматривается эффективность образования посредством развития творческих способностей художников, работающих в области изобразительного искусства, используя акварельную технику, а также научно-методические рекомендации, основанные на проблемах и решениях содержания, формы, методов, средств и передового педагогического опыта, основанные на теоретико-методических подходах.

Ключевые слова: акварель, пейзаж, архитектура, живопись

Tasviriy san'at amaliy mashg'ulotlar akvarel texnologiyasi matryalda qullash metodikasi turlichadur. Akvarel (frans. aquarelle, asli lotincha aqua - suv) - rassomlik birinchi oddiy buyumlardan murakkab inson portret gavdasini amaliy mashg'ulotda tasvirlashadi. Akvarel tasviriy san'at ta'lim yunalishlari birinchi bosqich materyalshunoslik texnologda ishlatiladigan bo'yoq (suvda oson eriydi) va shu bo'yoq bilan bajarilgan rangtasvir badiiy asari uchun qullaniladi. Akvarelning o'ziga xos xususiyati bo'yoqning tiniq, rangning sofligidir, rang-tasvirida oq bo'yoq ishlatilmaydi - oq qog'oz bo'yoq vazifasini bajaradi, bo'yog'i qog'oz sirtiga yupqa qatlam bo'lib yotadi, bu qatlam nurni yaxshi o'tkazadi. Shuning uchun rangtasviri yuzasi silliq bo'lmagan oq qog'ozga ishlanadi, bo'yog'ida rasm ishlanganda rangsurtmalar, rang qatlamlari xususiyati hisobga olinishi kerak, qadimdan ma'lum bo'lgan. 15-asrda nemis rassomi Dyurer akvarelda ajoyib asarlar yaratgan. 17-18-asrlarda Yevropada keng tarqaldi. 18-19-asr boshlaridan jadal rivojlandi, uslub va usullari ishlab chiqildi. Angliya (U. Terner, R. Bonington va boshqalar), Fransiya (O. Dome, E. Delakrua va boshqalar), Rossiya (K. Bryullof, I. Repin, V. Serov, M. Vrubel va boshqalar) da san'atining ajoyib namunalari yaratildi. O'zbekiston tasviriy san'atida rang-tasviri 20-asr 20-yillaridan rivojlana boshlagan. A. Nikolayev (Usta Mo'min), G. Nikitin, B. Hamdamiy, O'. Tansiqboyev, V. Kaydalov va boshqa rassomlar o'z akvarel asarlari bilan o'zbek akvarel san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston rassomlaridan M. Sodiqov, T. Muhamedov, F. Boymatov, V. Apuxtin va boshqa ijodida akvarel rivojlanishiga xissa qushishmoda Xozirgi kunda kup rassomlar ijodida kurish mumkin.

Akvarel bo'yoqlari juda ham qadimiy bo'lib, ehtimol Yevropaning paleolit davridagi g'or rasmlariga tegishlidir. Misr davridan beri, ayniqsa Yevropa o'rta asrlarida qo'lyozma rasmlari uchun foydalanilgan. Biroq kelib chiqishi, uning badiiy vosita sifatida *uzluksiz* tarixi Uyg'onish davridan paydo bo'ldi. Shimoliy Uyg'onish davri nemis rassomi Albrecht Dyurer (1471-1528) bir nechta ajoyib botanika, yovvoyi tabiat va landschaft akvarellarini chizgan, odatda akvarelning eng qadimgi vakillaridan biri hisoblanadi. Dyurer Uyg'onish davrining bir qismi sifatida Germaniyada akvarel bo'yoqlarining muhim maktabiga Hans Bol (1534-1593) rahbarlik qilgan^[1].

Akvarel ijod etgan rassomlar tarixi zamonaviy ashyoda tasvirlash metodikasi. Akvarel lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, "akvareldan ishlangan rasm" degan ma'noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan. XIX asrda akvarelda yirik san'at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozens, Tyorner, D.Kondtabel, R.Bonington, T.Gyortin kabi rassomlar o'zlarining asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini mohirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVIII asrdan e'tiboran keng yoyila boshladi.

O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropa ham akvarel dan cherkovga qarashli bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustratsiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin u vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilar edi. O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatura hamda illyustratsiyalar ishlashda shuhrat qozongan.

XIX asrning oxirlarida akvarel I.Y.Repin, V.A.Serov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning asarlarida o'zining yangicha sifatlarini namoyish qildi. Sovet tasviriy san'ati namoyandalari A.M.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukriniksilar, N.N.Volkov, Yu.I.Niprinsev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustratsiyalar tashkil etadi. Sovet O'zbekistonida esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G.Shevrakov, G.Siganov, K.Cheorakov va ayniqsa Ch. Axmarovlarning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel turlari bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarini ko'payishiga va xilmaxillashuviga olib keldi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud, masalan, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida ayniqsa, amaliy va dekorativ san'at o'quv yurtlarida kompozitsiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi.

Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukunidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulyatsiya tayyorlanadiga modda- larni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotgan- da har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun

emulsiya shiraning, dekstrinning suvdagi eritmasi, meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrinning suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Meva shakari suv bilan aralashtirilib, siropsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenoldan kerakli tomiziladi.

Chinni idishlardagi – yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq olinib, meva shakari o'rnidagi asarlari mumi va gliserin qo'shiladi. Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'sim -liklar yoki hayvonlarda uchraydigan pigmentlardan tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Akvarel tayyorlash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi va tosh plita yoki max- sus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erisa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan hisoblanadi.

Akvarel (frans. aquarelle, asli lotincha aqua - suv)- rassomlik san'atida ishlatiladigan bo'yoq (suvda oson eriydi) va shu bo'yoq bilan bajarilgan rangtasvir asari. Akvarelning o'ziga xos xususiyati bo'yoqning tiniq, rangning sofligidir, rang-tasvirida oq bo'yoq ishlatilmaydi- oq qog'oz bo'yoq vazifasini bajaradi, bo'yog'i qog'oz sirtiga yupqa qatlam bo'lib yotadi, bu qatlam nurni yaxshi o'tkazadi. Shuning uchun rang-tasviri yuzasi silliq bo'lmagan oq qog'ozga ishlanadi, bo'yog'ida rasm ishlanganda rangsurtmalar, rang qatlamlari xususiyati hisobga olinishi kerak, qadimdan ma'lum bo'lgan. 15-asrda nemis rassomi Dyurer akvarelda ajoyib asarlar yaratgan. 17-18-asrlarda Yevropada keng tarqaldi. 18-19-asr boshlaridan jadal rivojlandi, uslub va usullari ishlab chiqildi. Angliya (U. Turner, R. Bonington va boshqalar), Fransiya (O. Dome, E. Delakrua va boshqalar), Rossiya (K. Bryullov, I. Repin, V. Serov, M. Vrubel va boshqalar) da san'atining ajoyib namunalarini yaratildi. O'zbekiston tasviriy san'atida rang-tasviri 20-asr 20-yillaridan rivojlana boshlagan. A. Nikolayev (Usta Mo'min), G. Nikitin, B. Hamdamiy, O'. Tansiqboyev, V. Kaydalov va boshqa rassomlar o'z akvarel asarlari bilan o'zbek akvarel san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston rassomlaridan manzara Sodiqov, T. Muhamedov, F. Boymatov, V. Apuxtin va boshqa ijodida akvarel rivojlanmoqda.

Akvarel tarixi bo'yoqlari juda ham qadimiy bo'lib, ehtimol Yevropaning paleolit davridagi g'or rasmlariga tegishlidir. Misr davridan beri, ayniqsa Yevropa o'rta asrlarida qo'lyozma rasmlari uchun foydalanilgan. Biroq kelib chiqishi, uning badiiy vosita sifatida *uzluksiz* tarixi Uyg'onish davridan paydo bo'ldi. Shimoliy Uyg'onish davri nemis rassomi Albrecht Dyurer (1471-1528) bir nechta ajoyib botanika, yovvoyi tabiat va landshaft akvarellarini chizgan, odatda akvarelning eng qadimgi vakillaridan biri hisoblanadi.

Dyurer Uyg'onish davrining bir qismi sifatida Germaniyada akvarel bo'yoqlarining muhim maktabiga Hans Bol (1534-1593) rahbarlik qilgan^[1].

Marat Fayziyevich Sodiqov (1945.27. 12, G'ijduvon tumani -2021.1.08, Toshkent^[1]) - grafik rassom, O'zbekiston Badiiyot akademiyasi akademik (2003). Uzbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1999). Toshkent teatr varassomlik san'ati institutini tugatgan (1973). Sodiqov litografiya, akvarel, guash, tempera usulida ijod qiladi, ijodida fidokorlik, rassom va zamon, inson va tabiat kabi mavzular yetakchi o'rin tutadi, hayotda ro'y bergan muhim o'zgarishlar uning asarlarida o'z aksini topadi: "Gazli" (1971), "Navoiy kimyo kombinati" (1974), "Fashizm" triptixi (1975), "Hodisa" (1976), "Oq Buxoro" turkumi (1978-85), "Xronika" turkumi (1981), "Mening Buxoroim" (1982), "O'zbekiston bo'ylab" (1984-2000), "So'qoq" (1985) va boshqa avtolitografiyalar turkumlari.

Sodiqov asarlaridan namunalar respublika va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya, Rossiya va boshqalar) muzey va to'plamlarida saqlanadi. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1987).

Xulosa tasviriy san'at ta'lim sifatini rivojlanishi uchun akvarel materiyali texnikasi rangtasvir tarixi va zamonaviy tavirlarini me'morchilik, arxitekura badiiy bezaklarini tasvirlash uchun qo'llaniladi. Portret va inson gavdasi tasvirini metodik tasvirlash. Tasvirni estetik faolyatida ramizli qullash, nafosatni, go'zallikni hissiyot uning ruhiyati, tarbiyasiga sekin-asta ta'sirini ko'rsatadi. Bizning atrofimizdagi go'zal narsalar jozibasi, ko'rinishi, shakli bilan birga rangi orqali ham bizni o'ziga jalb qiladi.

Akvarel rangtasvir materyalini yaxshi tasvirlash uchun xar bir iste'dodli ta'laba uchun muammoli bulishi, tasvirni bilbasligi, uning echimi kup izlanish maxoratino oshirish kerak. Badiiy asr g'oyani yanada emotsanal chiqishi uchun, inson ma'naviy estetik, ruhiyatni kutarishga ko'ra ranglar, amliy san'at badiiy bezagini yanada jozibali chiqishi uchun, ijopkor pedagoglar maxorat darslari, ilmiy maqolalar, amaliy mashiqalar, talabalarni rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov, "Rangtasvir " Toshkent- "Innovatsiya-Ziyo" - 2019
2. R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo "Navruz". T- 2013
3. Toshmurodov. M. E "Rangtasvir amaliyoti"(dastgohli rangtasvir), o'quv-uslubiy qo'llanma. elektron resurs. T. "Cashma print" 2010 y.
4. Jumaniyazov. Sh. R, Xaitov. E. X "Rangtasvir" o'quv qo'llanma. T. "INFO CFPITAL GROUP" 2018 y
5. H.Egamov "Bo'yoqlar bilan ishlash"-Toshkent.O'qituvchi.1981yil
- 6.Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. T.: "Sharq" 2007.203b.

Maqolalar

1.RQ. D. (2021). Method of drawing the composition of different states of the human body in 10.Джалилова, Р. (2022). Тасвирий санъат асарлари миллий истиқлол ғоясининг тарихий ва фалсафий асослари. *oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 243-250.

2.Жалилова.Р.(2022). Мустақиллик йиллари тасвирий санъат қаламтасвир, рангтасвир, композицияси тараққиёти. *science and innovation*, 1(с3), 239-244.

3.Jalilova. R. (2022). Tasviriy san'atda qalamtasvir texnologiyasini o'qitishning didaktik prinsiplari. *science and innovation*, 1(c2), 45-47.

Manzara janri tog', dengizlar tasvirlanadi manzara, tasviriy san'at tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janr manzarada shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmualar (me'moriy Manzara), dengiz ko'rinishlari (marina) va hokazo ham tasvirlanadi. Atrof muhitni tasvirlayotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his tuyg'u va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson tomonidan atrof dunyoni ma'naviy (qisman amaliy) o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan Manzara o'zida katta ma'no tashiydi. Tabiat tasvirlari tabiat, uning qonuniyatlari haqidagi tasavvurlar (olam gumbazi, oy, quyosh, yulduzlar, dunyo mamlakatlarining shartli belgilari) yuzaga kelgan payt (neolit)dan o'z ifodasini topgan. Qad. Sharq madaniyatida tabi-atni yaxlit holda ko'proq aniq xususi-yatlarga ega bo'la boshlagan hodisalar muhiti degan tasavvur shakllangan. Miloddan avvalgi 16-15-asrlar Qadimgi Sharq(Bobil, Ossuriya, Misr) devoriy rasmlari va bo'rtma tasvirlaridagi jang , ov va boshqa lavhalarda manzara ning ayrim bo'laklari mavjud. Misr devoriy rasmlari va bo'rtma tasvir (relyef)larida ilk bor bezaklar ritmi orqali hayvonot, o'simlik va tabiiy hodisalarning ishonarli ta'sirchan birligiga erishilgan. Yunon san'atida, odatda, manzara tarkibiy qismlarini inson tasviridan ajratib bo'lmaydi. Yevropa o'rta asrlar san'atida manzara (ayniqsa, shahar va alohida bino ko'rinishlarida), odatda, voqea sodir bo'layotgan joyning fazoviy qurilishini anikdash vositasi sifatida xizmat qilgan. Musulmon Sharqi mamlakatlarida 13-14-asrlardan kitob Manzarga ko'proq o'rin berilgan: yashnab turuvchi sof bo'yog'i va gilamday tekis sathli kom-pozitsiyasi, sehrli bog' tasavvurini yaratuvchi tabiati, har bir bo'lak jo'shqin ko'tarinkiligi bilan diqqatga sazovor. Hindiston (ayniqsa, Boburiylar davri miniatyura maktabi asarlarida), Hindixitoy, Indoneziya (afsonaviy va epik mavzudagi relyeflaridagi tropik o'rmonlar obrazi) o'rta asrlar san'atida landshaft detallari, ayniqsa, jo'shqin qudratga ega. Manzara mustaqil janr sifatida Xitoyning o'rta asrlar tasviriy san'atida o'ta muhim o'rin tutadi. Manzaraga tabiatnint doimo yangilanib turuvchi olam qonunining ko'rgazmali umumlashmasi sifatida qaralgan (bu "tog'lar- suvlar" manzara turida o'z ifodasini topgan). Yaponiya san'ati (12-13- asrlar) da manzara bezak san'atida bezakdagi eng muhim ohanglarni alohida ajratib olishga moyilligi bilan diqqatga sazovor. G'arbiy Yevropa san'atida Manzaraga asar ruhiy olamining muhim qismi sifatida qaralgan. Shartli zamin (tilla yoki naqshli) manzara bilan almasha borgan (italyan Jotto, A. Lorensetti, 13-14-asrlar; niderland aka-ukalar X. va Ya. Van Eyk, 15-asr 1-yarmi va boshqalar). Uyg'onish davri rassomlari chizgi va etyudlarida olam haqidagi ratsional qonunlarga amal qilib, Manzaraga real voqealar muhiti sifatida qaraganlar (italyan Leonardo da Vinchi, J. Bellini, Titsian; nemis A. Dyurer, manzara Nithardt va boshqalar), ayni shu davrda manzaraning alohida janr sifatida shakllanishiga (avvalo grafikada) zamin yaratildi.

19-asr rus Manzara janrida romantik an'analar yetakchi rol o'ynagan bo'lsa (F.Matveyev, M. Vorobyev, I.Ayvazovskiy), 19-asr 2-yarmida peredvijniklar harakati bilan bog'liq realistik manzara janri gurkirab o'sdi (I.Shishkin, A. Savrasov, I. Levitan va boshqalar).

20-asrda Yevropa va Amerikada texnika olamini tabiatga qarshi qo'yuvchi industrial Manzara keng tarqaldi. Realistik Manzara ham jadal rivojlandi, unda go'zal tabiat o'ziday tabiiyligicha tasvirlanadi.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xududida o'rta asrlar san'atida musulmon Sharqi mamlakatlarida bo'lgani kabi naqsh - bezak asosiy o'rinni egallagan. Garih, islmiy naqshlarda uslublashtirilgan o'simlik bo'laklari ko'p ishlatilgan. O'rta Osiyoda shakllangan miniatyura maktablari vakillari qo'lyozma kitoblarga ishlagan rayem va bezaklar bo'yloqlarining uyg'unligi, zamin sifatida Manzara va me'morlikka e'ti-borning kuchliligi bilan diqqatga sazovor. O'rta Sharq san'ati, jumladan, Hirot, O'rta Osiyo miniatyura san'atida manzara yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara, tabiat ko'rinishi mahorat bilan ishlangan. Uning davomchilari Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir Samarqandiy va boshqa ijodida ham Manzara o'rinishlari muhim o'rin egallaydi.

O'zbek Manzara janrining haqiqiy rivojlanishi 20-asrga to'g'ri keladi. Shu davrda dastgoh san'atida Manzaraning nodir namunalari yaratildi. P.Benkov, O'. Tansiqboyev, N. Karaxan, R. Temurov, R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, A. Mirsoatov va boshqa bu sohada samarali ijod qildilar va o'zbek tasviriy san'atida manzara janri rivojiga katta hissa qo'shdilar¹²³⁴.

1.¹ . 1.Taktash R.X., Izobrazitelnoye iskusstvo Uzbekistana, T., 1972; Iskusstvo Sovetskogo Uzbekistana, M., 1976.

2.Nemat Abdullayev.^[1]

3² O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Akvarelning tarkibiy qismlari mo'yoqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yupqa qatlam tarzida yotishi, tekis silliq surkalishi, quyilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, haddan tashqari quruqlashib ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'i va salqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi shpris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi.

Tush asosan yozish-chizish, bezash va boshqa ishlarda keng qo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. tushlar suyuq holda shishi idishlarda va txtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi. Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ularning axromatik ranglarning har xil tushlari hosil qilinadi. Tushni juda qattiq ishlatmaslik lozim.

Qog'oz akvarel bilan bajariladiga ishlarining yaxshi chiqishida muhim rol o'ynaydigan materiallardan biridir. Bundan tashqari qog'ozdan fon sifatida hamda bo'yoq o'rnida foydalaniladi. Qog'ozning turlari juda ko'p. ko'pincha oq vatman yoki chizmachilik uchun ishlatiladigan turli oq qog'ozlardan juda unumli foydalaniladi. Qog'oz sirtlarining biroq g'adir-budur bo'lishi, akvarelda bajariladigan ishlarining sifatli chiqishiga olib keladi.

"Stirator" bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birining ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat. Ishlatishda ho'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib, siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilgandan keyin uni tizza ustiga qo'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek, stirator oyoqsiz holda ishlatilganda esa maxsus tutqichga o'rnatiladi.

Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishda uning to'rtala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoniga jiqqa ho'l latta suvni o'ziga shimib olguncha surtiladi. Chetki qayrilgan burchaklari esa quruqligicha qoldiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib qo'yiladi va u chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Ho'l planshet mo'tadil haroratli joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda, ekskursiyaga chiqqanda juda asqotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin. Kerakli jihozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib, qog'ozni mahkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa har xil o'lchamdagi cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa suv uchun maxsus idish, latta, akvarel va hokazolar solib olinadi.

Mo'yoqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda maxsus akvarel mo'yoqalamidan foydalanish lozim. Mo'yoqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga mo'ljallangan. Ularni ko'rinishida qarab quyidagicha farqlash mumkin: yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan mo'yoqalamlar) kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi. Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yoqalamlar dumaloq bo'lib, uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi.

Palitra. tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metallardan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitalardan foydalanish ma'qul. palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinadi. Shuningdek, uzoq vaqtgacha quramasdan saqlanadi. Palitraning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarning tushlari o'zgarimasdan ko'zga tashlanadi.

Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiya- larda, etyud ishlashda metal yoki shisha stakanlar yoki bankalar juda qo'l keladi. Akvarel bilan ishlashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har xil bo'lishi mumkin.

Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muhim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. "TM" markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning bir tomonida nomi, so'ngra esa qattqlik darajasi yozib qo'yiladi.

Akvarel bilan ishlash tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi. Akvarel bilan ishlashda ish joyi talabga javob beradiga qilib jihozlanishi kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishchalarda suv bilan aralashtirish va va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim.

Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigjar ranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl (bir rangda ishlash) metodida ishlash deb ataladi. Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlana di hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'riladi.
2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yoqalam hamisha eritmaga rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi bo'yoq qurimaguncha navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keying qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.
4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.
5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Xulosa tasviriy san'at manzara kurinishlari shaxar, qishloq, tog'larni ta'lim sifatini rivojlanishi uchun akvarel materiyali texnikasi rangtasvir tarixi va zamonaviy tavirlarini me'morchilik, arxitekura badiiy bezaklarini tasvirlash uchun qo'llaniladi. Manzara kurinishlarida portret va inson gavdasi tasvirini metodik tasvirlash. Manzara tasvirni estetik

faolyatida ramizli qullash, nafosatni, go'zallikni hissiyot uning ruhiyati, tarbiyasiga sekin-asta ta'sirini ko'rsatadi. Bizning atrofimizdagi go'zal narsalar jozibasi, ko'rinishi, shakli bilan birga rangi orqali ham bizni o'ziga jalb qiladi.

Manzara kurinishini akvarel rangtasvir materyalini yaxshi tasvirlash uchun xar bir iste'dodli ta'laba uchun muammoli bulishi, tasvirni bilbasligi,uning echimi kup izlanish maxoratino oshirish kerak. Badiiy asr g'oyani yanada emotsanal chiqishi uchun,inson ma'naviy estetik, ruhiyatni kutarishga ko'ra ranglar, amliy san'at badiy bezagini yanada jozibali chiqishi uchun,ijopkor pedagoglar maxorat darslari, ilmiy maqolalar, amaliy mashiqqlar, talabalarni rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov, "Rangtasvir " Toshkent- "Innovatsiya-Ziyo" - 2019
2. R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo "Navruz". T- 2013
3. Toshmurodov. M. E "Rangtasvir amaliyoti"(dastgohli rangtasvir), o'quv-uslubiy qo'llanma.elektron resurs. T. "Cashma print" 2010 y.
4. Jumaniyazov. Sh. R, Xaitov. E. X "Rangtasvir" o'quv qo'llanma. T. "INFO CFPITAL GROUP" 2018 y
5. H.Egamov "Bo'yoqlar bilan ishlash"-Toshkent.O'qituvchi.1981yil
6. Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. T.: "Sharq" 2007.203b.